



## **TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI Q A R O R I**

2023 - yil 28 - iyul

214-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 27-iyuldaggi 455-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to‘g‘risida**

Toshkent shahar hokimining 2023-yil 27-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur’atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 9-fevraldagagi PQ-50-son va 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarorlari ijrosini o‘rganish to‘g‘risida”gi 455-14-0-Q/23-sonli qarorini ijrosini ta’minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining 2023-yil 27-iyuldagagi “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Toshkent shahrining ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini jadal sur’atlarda hal etish hamda aholi farovonligini yaxshilashga doir qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2023-yil 9-fevraldagagi PQ-50-son va 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarorlari ijrosini o‘rganish to‘g‘risida”gi 455-14-0-Q/23-sonli qarori ma’lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahar hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 9-fevraldagagi PQ-50-son va 2023-yil 1-iyundagi PQ-175-son qarorlari (keyingi o‘rninda - qarorlar) bilan ajratilgan mablag‘larni maqsadli, manzilli va qonuniy sarflanganligini o‘rganish uchun ishchi guruhi tarkibi va vazifalari ilovaga muvofiq tasdiqlanganligi inobatga olinsin.

3. Tuman Obodonlashtirish boshqarmasi boshlig‘i (J.Abilkasimov):

Joriy yil 31-iyulga qadar qarorlar ijrosi doirasida amalga oshirilgan ishlar ro‘yxati (obyektlar nomi), loyiha va pudrat tashkilotlarini tanlash bayonnomalari, smeta-loyiha hujjatlari, ekspertiza xulosalari, loyiha va pudrat tashkilotlar bilan tuzilgan shartnomalar, bajarilgan qurilish montaj ishlarining ijro hujjatlari, laboratoriya

xulosalari, qurilish materiallari sifat sertifikatlari va hisob-fakturalari, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, pudratchi tomonidan sarflangan xarajatlar hisob-fakturalari, to‘lovlar bo‘yicha to‘liq ma’lumotlarni (to‘lov amalga oshirilishiga asos bo‘lgan shartnoma, bajarilgan ishlar dalolatnomalari) Ishchi guruhiga taqdim etilishi ta’mirlansin.

4. Ishchi guruhi:

ajratilgan mablag‘larning o‘z vaqtida o‘zlashtirilishini, ushbu mablag‘lar hisobidan bajarilgan mahallalardagi ichki yo‘llar, piyodalar yo‘laklari, muhandislik kommunikatsiya obyektlarini ta‘mirlash, mahallarda bolalar va sport maydonchalarini qurish, mikro xiyobonlar tashkil etish, irrigatsiya tizimi va sug‘orish tarmoqlarini hamda ko‘p qavatli uylarni ta‘mirlash, shuningdek, mahallalarni obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish ishlarini ShNQ va ShK talablariga muvofiq amalga oshirilganligini o‘rganishi;

O‘rganish jarayonida loyiha va pudrat tashkilotlarini tanlash uchun o‘tkazilgan tanlovlarni qonuniyligi, smeta-loyiha hujjatlaridagi narxlarni asosliligi, shartnomalarning qonuniyligi, bajarilgan qurilish montaj ishlarining ijro hujjatlari, laboratoriya xulosalari olinganligi, qurilish materiallari sifat sertifikatlari va hisob-fakturalari mavjudligi, bajarilgan ishlar dalolatnomalari, pudratchining sarflangan xarajatlar hisob-fakturalari asosliligi, to‘lovlar qonuniyligiga alohida e’tibor qaratilish;

Ishchi guruhi bajarilgan ishlarni Vazirlar Mahkamasining “Kapital qurilish sohasida buyurtmachi xizmati faoliyatini tubdan isloh qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2021-yil 20-maydagi 321-son qarori talablari asosida nazorat o‘lchovidan o‘tkazilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

5. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosarlari D.Xalisov va X.Tashpulatov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangihayot tumani hokimi**



**X.Inogamov**